



# ASHTARXONIY HUKMDORLAR DAVRIDA TA'LIM TIZIMIGA E'TIBOR

*Nargiza Isomiddinova Xusniddin qizi*

*Buxoro davlat universiteti “Tarixshunoslik, manbashunoslik  
va ilmiy tadqiqot usullari’ mutaxasisligi 2-bosqich magistranti*

[nargizaisomiddinova4@gmail.com](mailto:nargizaisomiddinova4@gmail.com)

*Feruza Bobojonova Xayatovna*

*BuxDU Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

[bobojonova.feruza.71@mail.ru](mailto:bobojonova.feruza.71@mail.ru)

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada Buxoro xonligida Ashtarxoniyalar davlatining hokimiyat tepasiga kelishi, ilm-fan, madaniyat va san'at borasidagi tushunchalar, ilmiy-madaniy hayotining shakllanishi va rivojlanishida hukmdorlarning ahamiyati, Ashtarxoniy hukmdorlar faoliyati, maktab, masjid, madrasalarning qurulishi va faoliyati, bu davrda yaratilgan asarlar, Buxoro xonligida XVII asrdagi ta'lim tizimidagi yutuqlar va kamchiliklar haqida fikrlar va xulosalar yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ashtarxoniyalar, masjid, madrasa, ilm-fan, she'riyat, san'at, madaniyat, obida,, asar, arab tili, diniy bilimlar, dunyoviy bilimlar, fan, tarix, husnixat, handasa, ilmi nujum, joniylar, kutubxona.*

**АННОТАЦИЯ:** В статье рассматриваются возвышение Аштаранского ханства к власти в Бухарском ханстве, понятия о науке, культуре и искусстве, значение правителей в становлении и развитии научной и культурной жизни, деятельность правителей Аштаранского ханства, строительство и функционирование школ, мечетей и медресе, произведения, созданные в этот период, а также размышления и выводы о достижениях и недостатках системы образования в Бухарском ханстве в XVII веке.

**Ключевые слова:** *Аштарханиды, мечеть, медресе, наука, поэзия, искусство, культура, памятник, произведение, арабский язык, религиозные*



знания, светские знания, наука, история, каллиграфия, чистописание, астрология, души, библиотека.

## KIRISH

Shayboniyalar Buxoroda 1598-yilgacha hukmronlik qildilar keyin esa hokimiyatga joniylar keladi. Ular Jo'jining o'g'li O'rda avlodidan bo'lib, shayboniyarga ona tarafdan qarindosh edi. Lekin ayrim manbalarda Ashtarxoniyalar sulolasi Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li To'qay Temurga borib taqaladi. Jo'jixonning katta o'g'li Botuxon To'qay Temurga 14 ulusni mulk qilib

bergan degan fikrlar ham mavjud. Shunday qilib 1601-yilda Buxoro xonligida hokimiyat yangi sulola-ko'p hollarda joniylar(Joni Muhammad nomidan) yoki ashtarxoniyalar (kelib chiqish o'rni bo'yicha) degan nom bilan yuritilgan To'qay Temur sulolasiga o'tdi.

Ba'zi manbalarda ayttilishicha Buxoro taxtiga Boqi Muhammadxon o'z otasi Jonibek Muhammadxonni o'tqazgan va uning nomidan tangalar ham zabit qildirgan, biroq Jonibek Muhammad Buxoro taxtidan voz kechgan. Buning asosiy sababi hokimiyatning qonuniyligi edi. Ashtarxoniyalar hukmdorlari ham o'zlaridan oldingi sulola vakillari – temuriylar, shayboniyalar singari ilm-fan va madaniyatga e'tiborli bo'lishgan.<sup>1</sup> Dastlabki hukmdorlarning boshqaruvi davrida saroy hayotida shayboniyalar davri nasri va nazmi ta'siri sezilib turdi.

Ayni vaqtida ushbu sulola vakillaridan ham bir qator yetuk shoir, olim-fuzalo shaxslar yetishib chiqqan edi. Bularga misol qilib Imomqulixon va Nodir Muhammadning o'g'li shahzoda Qosim Muhammad Sulton, Abdulazizzon, Subxonqulixon va boshqalarni keltirish joizdir. XVII asr boshlarida Buxoro xonligida hokimiyatga kelgan ashtarxoniyalar sulolasi davrida o'zaro ichki ziddiyatlar, tinimsiz urushlar va siyosiy parokandalik avj oladi. Bunday jarayonlar esa albatta, mana'viy-ma'rifiy va madaniy hayotga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Shuningdek, bu davrda diniy mutaassiblik va ommaning diniy aqidalarga so'zsiz itoat etish talablarining kuchayishi ham ilm-fan rivojiga salbiy ta'sir o'tkazgan. Shunday bo'lishiga qaramasdan, murakkab diniy va siyosiy vaziyat ashtarxoniyalar davrida

<sup>1</sup> Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyati tarixidan lavhalar. T.: Fan, 2009. 75-bet.



maorif, ilm-fan va madaniyat rivojini to'xtatib qola olmagan. Bu davr ilm-faniga Mahmud ibn Vali, Muhammad Sharif Buxoriy, Muhammad Yusuf Munshiy, Muhammad Amin Buxoriy, Muhammad Zamon Buxoriy Abdurahmon Tole kabi ilm fan namoyondalari bilan bir qatorda ashtarxoniy hukmdorlari ham ulkan hissa qo'shganlar. Shunday hukmdorlardan biri ashatarxoniy Subhonqulixondir.

## ADABIYOTLAR VA MANBALAR

XVII-XVIII asr boshlari ya'ni Ashtarxoniylar sulolasiga hukmronligi tarixini bayon etuvchi Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanova", Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning "Muhit ut-tavorix" (Tarixlar dengizi), Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi", Muhammad Yusuf Munishiyning "Muqimxon tarixi" asarlari shu davrning mahsulidir. Bundan tashqari Mahmud ibn Vali ("Bahr-ul asror"), Xoja Samandar Termiziyning "Dastur al-muluk" asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanova", Muhammad Vafo Karmanagiyning "Tuhfat ul-xoniy", Abdurahmon Davlatning "Tarixi Abulfayzxon" kabi tarixiy asarlari yaratildi. Subhonqulixonning zamondoshi shoir Turdi (1702-y vafot etgan) ning ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Xoja Samandar Termiziyning "Dastur ul-mulk" (Podshohlar uchun dastur) asarini Subhonqulixon davri davlatchiligi tarixi va tuzumi haqidagi asardir. Mutribiyning "Tazkirat ush-muaro" Salexo Samarqandiyning "Muzakkir ul-ashob" (1602-y), Mulla Sodiq Samarqandiyning "Riyoz ush-shuaro" kabi tazkiralarida davr ilmiy muhiti haqida keng tasavvur beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buxoro xonligida Abdulazizzon hukmronligi davrida ma'naviy madaniy hayotda ijobiy siljishlar yuz beradi.<sup>2</sup> Olimlarga hurmat, shoirlarga iltifot, tasavvuf ahliga muruvvat ko'rsatish xonga xos xislat bo'lган. O'z davrining diniy ilmlaridan xabardor bo'lган Abdulazizzon Buxoroning taniqli faqihlaridan biri Mavlono Nasriddin Buxoriydan musulmon huquqshunosligi bo'yicha saboq olgan. Shuning natijasi o'laroq u fatvo berish hyquqiga ham ega bo'lган.<sup>3</sup> Tariqatda esa Mhdumi

<sup>2</sup> Arminiy vamberi. Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi. 2-qism. T.: Info capital group, 2019. 133-bet.

<sup>3</sup> To'rayev H. Ashtarxoni Abdulazizzon. // Buxoro mayjlari. 4-son, 2008. 40-bet.



A'zam avlodlaridan biri Hoji Abdulg'afforning muridi sanalgan.<sup>4</sup> Abdulazizzon ilm – fan ravnaqiga hissa qo'shish maqsadida 1652-1654-yillarda Buxoroda 84 hujradan iborat yirik madrasa barpo etgan. Ulug'bek madrasasi (1417)ning ro'parasida joylashgan bu ilm maskani memoriy jihatdan o'z davrining nodir obidasi hisoblangan. Uning me'mori Mimxoqon ibn Xoja Muhammadamin bo'lган. Madrasaning ichki va tashqi qismi saroy me'mori Muhammad Solih va masjid bezakchisi koshinkor Mavlono Muhammad Amin xattot tomonidan suls yozuvi bilan bezatilgan.<sup>5</sup>

Undagi marmar taxtachalar, qimmatbaho koshin bezaklar, nafis ganchkor gumbazlar, ushbu davr me'morchiligida ham yetakchi an'analar saqlanib qolganligidan dalolat beradi. Aftidan bu binoni qurgan me'mor yangi binolar shakli va bezaklari jihatdan sodda Ulug'bek madrasasini orqada qoldirib ketishni maqsad qilgan. Inshootning bezaklari ichida Xoja Zayniddin masjidi va Baland masjidi naqshlarida mavjud bo'lган “kundal”ga tilla suvi yurutilgan. Bu naqshlarning ishlanish usulida Xitoy san'atining shubhasiz ta'sirini namoyon qiluvchi oq asosga ko'k bo'yoq bilan gullar chizish usulini ham, daraxtlari va xayoliy imoratlari bilan Hindiston me'morchiligin eslatib turuvchi parchalar mavjudligini ham ko'rish mumkin.<sup>6</sup> Tarixiy manbalarda aytilishicha, Abdulazizzon o'zi qurdirgan mazkur madrasada zamonasining yetuk allomasi mavlono Muhammad Sharif al-Buxoriy al-A'laviydan tehsil olgan.<sup>7</sup> Abdulazizzon hukmronlik qilgan davrda Registonning shimoliy tomonida bozori go'sfand (qo'y bozori) bor ediki, xon uning o'rnida katta madrasa bino qurdirgan. Shuning uchun ham XX asr boshlarigacha bu hudud “Madrasayı bozori go'sfand” deb atalganligi (bu madrasa 1930-1940-yillarda vayron qilingan) ma'lum. Shuningdek Abdulazizzon bir qancha inshootlar qurish va ta'mirlash bilan birga shaharning Shayx Jalol va Qorako'l darvozalari orasida joylashjan Jo'ybordagi Jome masjidini ta'mir qildirgan.<sup>8</sup> Bundan tashqari Abdulazizzon davrida XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoroning janubi-g'arbiy qismida bir qancha inshootlari

<sup>4</sup> Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. Т.: Академнашр, 2017. 147-б.

<sup>5</sup> Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. Т.: Академнашр, 2017. 149-б..

<sup>6</sup> Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyat tarixidan lavhalar. Т.: Fan, 2009. 73-74-bet.

<sup>7</sup> Muhammad Amin Buxoriy. Muhit at-tavorix. / Fors tilidan tarjima, kirish va izohlar muallifi D.Y. Yusupova va U.Hamroyev. Т.: Fan, 2020. 16-bet.

<sup>8</sup> Mirzo Salimbek. Kashko'l Salimiyy. Tavorixi muttaqadamin va muattaaxirin. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi N. Yo'ldoshev. Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2003. 279-bet.



qurulib bitkaziladi. 1654-1655-yillarda bunyod etilgan Xiyobon madrasasi, 1670-1671-yillarda qurilgan Jo'ybori Kalon madrasalarini bunga misol keltirish mumkin.<sup>9</sup> Abdulazizzon aniq fanlardan matematika sohasining ham o'tkir bilimdoni bo'lган. Bu haqida o'sha davrda Eronga tashrif buyurgan polyak elchisi quyidagicha fikr bildirib o'tgan: "Abdulazizzon turli fan sohalarida, ayniqsa, matematika sohasida olim odam bo'lган. Xon hatto adabiy ijod bilan ham shug'ullanib turgan".<sup>10</sup>

XVII asrda naqshbandiya tariqatining favqulodda yangi qudratli to'lqini paydo bo'ladi. Ayniqsa, Shayx Ahmad Sirhindiy o'z davrida ilm-fan va tariqatda erishgan yuksak maqomi uchun "mujaddidi alfi soniy" ( Ikkinci mingyillikda dinni ysngilovchi, kuchaytiruvchi) nomini oladi. Shu sababdan u amal qilayotgan naqshbandiya tariqati Hindistonda mujaddidiya-naqshbandiya nomini oladi. Bu jarayondan Abdulazizzon ham juda yaxshi xabardor edi. UU Hindiston mashoyixlari bilan aloqa bog'laydi. Abdulazizzon o'z yurtida ham ilm-fan va e'tiqodni rivojlantirish maqsadida ularning orasidan Hoji Muhammad Habibulloh al-Buxoriyni (u So'fi Olloyorning ustozи bo'lган) Buxoroga taklif qiladi va shu tarzda bu yerda mujaddidiya-naqshbandiya tariqati paydo bo'ladi.<sup>11</sup> Veyriyalik sayyoh va sharqshunos A.Vamberining yozishicha, Abdulazizzon doimo o'z yonida Imom al-Buxoriyning asarlarini olib yurgan va ularni mutolaa qilishni yaxshi ko'rGAN.<sup>12</sup>

Abdulazizzon davrida xattotlik san'ati ham ma'lum ravnaqqa erishgan bo'lib, Buxoroda o'z davrining mashhur xattotlari faoliyat ko'rsatgan. Xususan, xattoyt Mavlono Hoji Yodgorning ijodi gullab yashnagan. U saroy kutubxonasida ko'plab kitoblarni qayta ko'chiradi, turli qit'alar yozadi. Abdulazizzon topshirig'i bilan Hofiz Sheroziy devonini qunt bilan yeti yil mobaynida qayta ko'chiradi. Aynan shu nusxa Eron hukmdori shoh Sulaymonga (1667-1694) tuhfa tariqasida yuborilgan. Shoh Sulaymon Abdulazizzon tomonidan yuborilgan boshqa qimmatbaho narsalarga e'tibor bermasdan, faqat shu kitobga mahliyo bo'lib, shunday degan edi: "Abdulazizzon butun dunyoning ne'matlarini shu birgina kitobga jo aylab, menga jo'natibdi".<sup>13</sup>

<sup>9</sup> Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1991. 79-80-б.

<sup>10</sup> То'rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: Durdona. 2020.-B.175-bet.

<sup>11</sup> Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. Т.: Академнашр, 2017. 146-б.

<sup>12</sup> Arminiy vamberi. Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi. 2-qism. Т.: Info capital group, 2019. 133-bet.

<sup>13</sup> То'rayev H. Ashtarkoniy Abdulazizzon. // Buxoro mavjlar. 4-son, 2008. 40-bet.



Abdulazizzon o'z davrining yuqori darajadagi ma'lumotli kishisi bo'lib, nazmga ixlosi va qobiliyati yaxshi edi. U o'z ismi negizida "Aziziy" taxallusi bilan ijod qilgan. Go'zal she'rlar yozgan, hatto haj ziyorati davomida g'oyat go'zal bir nechta masnaviylar yozgan. Shoirlarga esa ehtiromi baland bo'lgan. Manbalardan birida aytlishicha, Abdulazizzon zamondoshlaridan bo'lgan bir shoir xonning semizligi haqida istehzoli she'r yozganida, she'r mazminidan xabar topgan Abdulazizzon shoirni chaqirtirgan. Bundan qo'rqib ketgan v axon qarshisida titrab turgan shoirga qarata u: "Mening haqimda haqorotomuz she'r yozganingni eshitdim, boshqalar haqida unday dema, yo'qsa sening uchun og'ir bo'lur' degan. So'ngra xon shoirga 10 ming dinor va to'n berishga amr qilgan. Bu munosabatga nisbatan shoir xonga qarata "Ey hukmdor, oliyjanobligingiz bilan meni bu darajada uyalturguncha, gavdamni 10 ming parchaga bo'lib tashlashga amr etsangiz yaxshiroq edi" degan ekan.<sup>14</sup> U nastaliq xatlarida yozishni, maktub va insho mashqini zamonasining eng sara allomalaridan o'rgangan. Keyinchalik, oliy hukmdor darajasiga yetishganda, Hindiston, Eron, Rumga xoh forsiy, xoh Turkiyda bo'lsin, noma bitiklarkan, ularni o'zi tahrir qilib, yoqmasa shaxsan o'zi yozish holatlari bo'lgan.<sup>15</sup>

## XULOSA

Xulosa qilganda, Ashtarkoniylar sulolasiga hukmronlik qilgan davr, Buxoro xonligi tarixida siyosiy beqarorlik va ichki nizolar bilan barobar, ilm-fan va ta'lim tizimining nisbiy barqarorlikni saqlagan davri bo'lib, ayniqsa ta'lim tizimiga bo'lgan munosabat jihatidan muhim bosqichlardan biri sanaladi. Bu davrda hukmdorlar tomonidan diniy ta'limga bo'lgan ehtiyoj va uning jamiyatdagi roliga yuqori baho berilgan bo'lib, ta'lim muassasalarining faoliyatini davom ettirish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash siyosati olib borilgan. Madrasalar sonining qisqarmasligi, aksincha, ayrim hududlarda yangi ta'lim maskanlarining barpo etilishi Ashtarkoniylarining ilm-ma'rifatga bo'lgan ehtiyoj va hurmatining yaqqol dalilidir. Shu bilan birga, ta'lim tizimi tarkibida o'ziga xos barqaror an'analar saqlanib qolgan bo'lib, o'quv dasturlari Shayboniylar davridagi ilmiy maktablar tajribasi

<sup>14</sup> Arminiy vamberi. Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi. 2-qism. T.: Info capital group, 2019. 133-bet.

<sup>15</sup> Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2001. 273-bet



asosida davom ettirilgan. Madrasalarda ta’lim diniy ilmlar bilan bir qatorda, mantiq, adabiyot, tarix, hisob-kitob kabi dunyoviy fanlar o‘qitilishi bilan ajralib turgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hamidov H. XVI-XIX asrlar yurtimiz madaniyat tarixidan lavhalar. T.: Fan, 2009. 75-bet.
2. Arminiy vamberi. Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi. 2-qism. T.: Info capital group, 2019. 133-bet.
3. To’rayev H. Ashtarkoniyl Abdulazizzon. // Buxoro mavjhlari. 4-son, 2008. 40-bet.
4. Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. Т.: Академнашр, 2017. 147-6..
5. Azamat Ziyo. O’zbek davlatchiligi tarixi. T.: Sharq, 2001. 273-bet
6. Mirzo Salimbek. Kashko’li Salimi. Tavorixi muttaqadamin va muattaaxirin. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi N. Yo’ldoshev. Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2003. 279-bet.
7. Баракаев Ж., Ҳайдаров Й. Бухоро тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1991. 79-80-б.
8. To’rayev H. Buxoro tarixi. – Buxoro: Durdona. 2020.-B.175-bet.
9. Ma’naviyat yulduzlari(Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir Xayrullaev M. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. –B.262
10. Ahmedov B. O’zbekistonning atoqli tarixshunos olimlari. T.: Cho’lpon, 2003. – B.90.
11. Zayniddin Muhammad Vosifiy. Badode ul vaqoe. Fors tilidan N.Norqulov tarjimasi. T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1979.